O’ZBEKISTONDA AHOLI DAROMADLARI DINAMIKASI VA HUDUDIY TAFOVUTLARINING STATISTIK TAHLILI

Shakirova Nigora Axralovna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

PhD, dotsent, Statistika kafedrasi

Tel: +998 94 364 00 50

E-mail: shakirova0130@gmail.com

Alijonova Guljahon Orifjonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar’’ fakulteti talabasi

Tel: +998 91 172 14 02

E-mail: guljahonalijova044@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasi hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlarning 2015-2025 yillardagi dinamikasi statistik ko’rsatkichlar yordamida tahlil qilingan. O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi tomonidan berilgan ma’lumotlar asosida 14 hudud (Qoraqalpog’iston Respublikasi, Toshkent shahri va 12 viloyat) bo’yicha variatsiya koeffitsienti, Gini koeffitsienti, eng yuqori va eng past daromadli hududlar nisbati ko’rib chiqilgan. Tahlil natijalari shuni ko’rsatadiki**,** ushbu davr ichida respublikada o’rtacha daromad oshgan bo’lsa-da, hududlar o’rtasidagi tabaqalanish kamaymagan, aksincha kuchaygan. 2023-2025 yillarda bu tendensiya yanada keskinlashgan. Tadqiqot so’ngida “O’zbekiston – 2030’’ strategiyasi doirasida hududiy tengsizlikni nazorat qilish va kamaytirish bo’yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: aholi daromadlari, Gini koeffitsienti, variatsiya koeffitsienti, "O'zbekiston — 2030", hududiy tafovut.

Аннотация

В данной статье проанализирована динамика совокупного дохода на душу населения в разрезе регионов Республики Узбекистан за 2015–2025 годы с использованием статистических показателей. На основе данных, предоставленных Государственным комитетом Республики Узбекистан по статистике, по 14 регионам (Республика Каракалпакстан, город Ташкент и 12 областей) рассмотрены коэффициент вариации, коэффициент Джини, а также соотношение регионов с наибольшим и наименьшим уровнем дохода. Результаты анализа показывают, что за указанный период, несмотря на рост среднего дохода по республике, региональная дифференциация не сократилась, а, напротив, усилилась. В 2023–2025 годах данная тенденция ещё более обострилась. В завершение исследования предложены рекомендации по мониторингу и снижению региональной неравномерности в рамках стратегии «Узбекистан — 2030».

Ключевые слова: доходы населения, коэффициент Джини, коэффициент вариации, «Узбекистан — 2030», региональная дифференциация.

Abstract

This article analyzes the dynamics of total per capita income across the regions of the over 2015–2025 using statistical indicators. Based on data provided by the State Statistics Committee of the of , the coefficient of variation, the Gini coefficient, and the ratio between the highest- and lowest-income regions were examined for all 14 regions (the of , the city of , and 12 provinces). The results show that, although the average income in the republic increased over this period, regional disparity did not decrease but instead intensified. This trend became even sharper in 2023–2025. The study concludes with recommendations for monitoring and reducing regional inequality within the framework of the " — 2030" strategy.

Keywords: household income, Gini coefficient, coefficient of variation, " — 2030", regional disparity.

KIRISH

So’nggi yillarda O’zbekistonda aholi daromadlarini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda, biroq bu jarayon barcha hududlarda bir xilda kechmayapti. Bu masala 2023-yilda qabul qilingan “O’zbekiston – 2030’’ strategiyasida ham alohida ta’kidlangan bo’lib, unda hududlar o’rtasidagi tafovutlarni kamaytirish vazifa qilib qo’yilgan. Ammo statistik ma’lumotlar 2015-2025 yillar davomida hududlar o’rtasidagi daromad tengsizligi kamayish o’rniga, aksincha kuchayganini ko’rsatadi. Shundan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi hududlar bo’yicha daromadlar dinamikasini tahlil qilish, tengsizlik ko’rsatkichlarini hisoblash va “O’zbekiston – strategiyasi doirasida amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Daromadlar tengsizligini o’lchash muammosi uzoq tarixga ega bo’lib , bu borada eng ko’p foydalaniladigan ko’rsatkich – 1912-yilda Korrado Jini tomonidan taklif etilgan Gini koeffitsientidir. Kuznets (1955) taklif etgan nazariyaga ko’ra,iqtisodiy o’sish jarayonida dastlab tengsizlik kuchayadi,so’ngra pasayishga yuz tutadi – bu farazni O’zbekiston misolida ko’rib chiqish alohida qiziqish uyg’otadi. Shuningdek, Atkinson (1970), Shorrocks (1982) , Bourguignon (1979) va Theil (1967) tengsizlikni turli jihatdan – ijtimoiy farovonlik,tarkibiy qismlarga ajratish metodologiyasini taklif qilishgan. Hududiy tengsizlikning fazoviy tabiatini Krugman (1991) agglomeratsiya nazariyasi orqali izohlab bergan, bu nazariyaga ko’ra kapital va ishchi kuchi yirik shaharlarda to’planib, hududlar orasidagi tafovutni kuchaytiradi. O’zbekistonlik tadqiqotchilar orasida ham bu mavzuga bag’ishlangan ishlar mavjud,biroq 2015-2025 yillarni qamrab oluvchi,variatsiya va Gini koeffitsientlarini birgalikda hisoblovchi tahlil hali yetarli emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasining rasmiy ma’lumotlaridan foydalanildi.Tahlil uchun 2015-2025 yillarni qamrab oluvchi, barcha 14 hudud (Qoraqalpog’iston Respublikasi, Toshkent shahri va 12 viloyat) bo’yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar ko’rsatkichi olindi.Hududlar o’rtasidagi farqni baholash uchun variatsiya koeffitsienti, Gini koeffitsienti, eng yuqori va eng past daromadli hududlar nisbati, shuningdek har bir hudud uchun

o’rtacha yillik o’sish sur’ati (CAGR) hisoblab chiqildi. Variatsiya koeffitsienti hududlarning daromad ko’rsatkichi o’rtacha qiymatdan qanchalik chetga chiqishini foiz hisobida ifodalaydi: uning qiymati qanchalik yuqori bo’lsa, hududlar o’rtasidagi tarqoqlik shuncha katta bo’ladi. Gini koeffitsienti esa daromadlar taqsimotining umumiy notekisligini 0 dan (barcha hududlarda daromad teng) 1 gacha (daromad faqat bitta hududda to’plangan) shkalada o’lchaydi. Barcha hisob-kitoblar zamonaviy statistik dasturiy vositalar yordamida amalga oshirildi. Hududlar bu tadqiqotda teng vaznli deb qabul qilindi va aholi soniga tortilgan (population-weighted) tahlil keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo’nalish sifatida qoldirildi. Shuni ta’kidlash lozimki, 1- jadvaldagi respublika ko’rsatkichi Milliy statistika qo’mitasining rasmiy, aholi soniga tortilgan ma’lumoti bo’lib, 2- jadvaldagi yillik ko’rsatkich esa 14 hududning teng vaznli (oddiy arifmetik) o’rtachasidir – bu ikkisi metodologik jihatdan bir-biridan farqlanadi va shu sababli bir-biriga aynan teng kelmaydi.

NATIJALAR

1-jadvalda 2015,2020 va 2025 yillar bo’yicha hududlarning aholi jon boshiga umumiy daromadlari va o’sish sur’atlari keltirilgan.

Hudud	2015-y. (ming so‘m)	2020-y. (ming so‘m)	2025-y. (ming so‘m)	O‘sish (marta)	CAGR (%)
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3 908,0	10 018,2	20 656,0	5,29x	18,1%
Namangan viloyati	4 113,2	10 051,9	21 304,6	5,18x	17,9%
Surxondaryo viloyati	4 560,8	10 219,6	22 572,2	4,95x	17,3%
Jizzax viloyati	4 809,6	11 566,2	22 907,4	4,76x	16,9%
Sirdaryo viloyati	5 813,9	11 681,6	23 339,5	4,01x	14,9%
Qashqadaryo viloyati	4 642,7	10 839,7	23 517,5	5,07x	17,6%
Samarqand viloyati	4 631,0	11 139,7	24 471,0	5,28x	18,1%

Farg‘ona viloyati	4 418,3	9 536,0	24 582,7	5,56x	18,7%
Andijon viloyati	4 835,0	11 559,7	26 275,9	5,43x	18,4%
Toshkent viloyati	6 123,7	14 021,2	29 830,9	4,87x	17,2%
Xorazm viloyati	5 052,2	12 976,6	31 136,0	6,16x	19,9%
Buxoro viloyati	6 411,6	15 755,4	35 176,2	5,49x	18,6%
Navoiy viloyati	8 761,4	21 380,5	44 694,2	5,10x	17,7%
Toshkent shahri	10 614,4	26 672,2	73 910,5	6,96x	21,4%
O‘zbekiston Respublikasi (rasmiy ko’rsatkich)	**5 410,6**	**12 888,6**	**29 935,5**	**5,53x**	**18,5%**

1-jadval .Hududlar bo’yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar va o’sish sur’atlari (2015-2025-yy.) Respublika qatori – Milliy statistika qo’mitasining rasmiy (aholi soniga tortilgan) ko’rsatkichi.

Ko’rinib turibdiki, respublika bo’yicha o’rtacha daromad 2015-2025 yillarda 5,53 baravar o’sgan. Eng past o’sish Sirdaryo viloyatida 14,9% qayd etilgan bo’lsa, eng yuqori o’sish shahrida 21,4% ga yetgan.

2-jadvalda 2015-2025 yillar mobaynida hisoblab chiqilgan hududlararo yillik dinamikasi aks ettirilgan.

Yil	14 hudud o’rtachasi (ming so‘m)	Variatsiya koeffitsienti (%)	Max/Min nisbat	Gini koeffitsienti
2015	5 621,0	32,65%	2,72	0,158
2016	6 441,0	32,45%	2,82	0,158
2017	8 201,0	33,08%	2,82	0,156
2018	10 149,0	32,59%	2,65	0,157
2019	12 089,0	36,01%	2,84	0,168
2020	13 387,0	35,43%	2,80	0,167

2021	16 315,0	35,13%	2,66	0,167
2022	19 179,0	34,65%	2,74	0,162
2023	21 824,0	38,52%	3,04	0,174
2024	26 052,0	43,77%	3,41	0,192
2025	30 312,0	44,95%	3,58	0,195

2-jadval. O'zbekiston hududlari o'rtasidagi daromadlar tengsizligi ko'rsatkichlarining dinamikasi (2015-2025-yy.)

Ushbu jadval ma'lumotlariga ko'ra, variatsiya koeffitsienti 2015-yildagi 32,65 foizdan 2025-yildagi 44,95 foizga, Gini koeffitsienti esa 0,158 dan 0,195 ga oshgan. Alohida ta'kidlash joizki, 2015-2022 yillarda ko'rsatkichlar nisbatan barqaror (variatsiya koeffitsienti 32-36 % oralig'ida, Gini koeffitsienti 0,156 - 0, 168 oralig'ida) bo'lgan bo'lsa, 2023-2025 yillarda keskin o'sish – Gini koeffitsientining 0,162 dan 0,195 ga, variatsiya koeffitsientining 34,65 foizdan 44,95 foizga ko'tarilishi qayd etilgan.

Hududlarni daromad darajasi va o'rtacha yillik o'sish sur'ati (CAGR) ko'rsatkichlari bo'yicha 3 guruhga ajratish mumkin: birinchi guruh – yuqori daromad darajasi va nisbatan tez o'suvchi hududlar (Toshkent shahri, Navoiy, Buxoro, Xorazm viloyatlari), ikkinchi guruh – o'rtacha daromad darajasidagi hududlar (Andijon, Samarqand, Qashqadaryo, Toshkent viloyati); uchinchi guruh – nisbatan past daromad darajasi va sekinroq o'sish sur'atidagi hududlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan, Farg'ona, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari).Ushbu guruhlash tavsifiy xarakterga ega bo'lib, hududlarni daromad darajasi va o'sish sur'atlariga ko'ra taqqoslash imkonini beradi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, respublika bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar sezilarli darajada oshgan bo'lsa ham, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni ifoda etuvchi variatsiya koeffitsienti va Gini koeffitsienti ham o'sgani namoyon bo'ldi. Bu holat hududlararo daromadlar sigma - divergensiya tendensiyasi

mavjudligini ko'rsatadi. 2023- 2025 yillardagi keskin sakrash, ehtimol, daromadlar o'sishining asosan Toshkent shahri, Navoiy va Buxoro kabi sanoat va investitsiya salohiyati yuqori hududlarda to'planishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Past daromadli hududlarning ba'zilari uchun aholi daromadlarining shakllanishida mehnat migratsiyasi va pul o'tkazmalari muhim omillardan biri bo'lishi mumkin.

Bu natijalar Krugmanning (1991) agglomeratsion nazariyasi bilan uzviy bog'liq: kapital, investitsiya va malakali ishchi kuchining yirik markazlarda hususan Toshkent shahrida to'planishi hududlararo tengsizlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari bu holat Kuznets farazining " o'sish bosqichida tengsizlik kuchayadi" degan qismiga mos keladi, ushbu holatni to'liq baholash uchun qo'shimcha tahlil talab etiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, kuzatilgan statistik tahlil 2015 – 2025 yillar davomida O'zbekistonda aholi jon boshiga umumiy daromadlarning barcha hududlarda sezilarli o'sganini, ammo bu o'sish notekis xarakterli ekanini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar berildi.

"O'zbekiston – 2030'' strategiyasi ijrosini nazorat qilish tizimiga hududiy variatsiya koeffitsienti va Gini koeffitsientini yillik rasmiy ko'rsatkich sifatida kiritish va buni Milliy statistika qo'mitasiga vazifa etib topshirish;

Past daromadli va sekin o'suvchi hududlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, , Farg'ona, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari) uchun maqsadli investitsiya va ish o'rinlari yaratish dasturlarini ishlab chiqish;

Ushbu hududlarda aholi daromadlarining tashqi mehnat migratsiyalariga bog'liqligini kamaytirish uchun mahalliy ishlab chiqarish va kichik tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi chora-tadbirlarni rivojlantirish;

Iqtisodiy imkoniyati past hududlarda yangi biznes boshlayotgan tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari va davlat grantlarini kengaytirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish;

Har bir hudud o'zining eksportbop yoki eng talab yuqori bo'lgan mahsulotiga ega bo'lish uchun maxsus ekspertlarni biriktirish;

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi mamlakatning barqaror va teng hududiy rivojlanishini ta’minlashga, shu orqali “O’zbekiston – 2030’’ strategiyasining aholi farovonligini oshirish bo’yicha asosiy maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston — strategiyasi to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni. Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Aholi turmush darajasi: rasmiy statistika. URL:https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (hududlar kesimida), SDMX ma’lumotlar bazasi. URL:https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_329.pdf
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Aholi jon boshiga umumiy daromadlari o‘sish sur’ati (hududlar kesimida), SDMX ma’lumotlar bazasi. URL:https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_1333.pdf
6. Gini, C. (1912). Variabilità e mutabilità. : Tipografia di Paolo Cuppini.
7. Kuznets S. Economic Growth and Income Inequality // The American Economic Review. – 1955. – Vol. 45, No. 1. – P. 1–28.
8. Atkinson A.B. On the Measurement of Inequality // Journal of Economic Theory. – 1970. – Vol. 2, No. 3. – P. 244–263.
9. Bourguignon F. Decomposable Income Inequality Measures // Econometrica. – 1979. – Vol. 47, No. 4. – P. 901–920.
10. Shorrocks A.F. Inequality Decomposition by Factor Components // Econometrica. – 1982. – Vol. 50, No. 1. – P. 193–211.

11. Theil, H. (1967). Economics and Information Theory. : North-Holland Publishing Company.
12. Deaton A. The Analysis of Household Surveys: A Microeconometric Approach to Development Policy. – : World Bank, 1997. – 479 p.
13. Piketty T., Saez E. Income Inequality in the United States, 1913–1998 // The Quarterly Journal of Economics. – 2003. – Vol. 118, No. 1. – P. 1–41.
14. Krugman, P. (1991). Increasing Returns and Economic Geography. Journal of Political Economy, 99(3), 483–499.
15. Milanovic, B. (2016). Global Inequality: A New Approach for the Age of Globalization. , : Press.
16. Mo‘ydinov M. Aholi daromadlari hududiy tabaqalanishining statistik tahlili (O‘zbekiston Respublikasi misolida): iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – , 2026. – 140 b.